




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2024- YIL
YANVAR-APREL**

2024- yilning yanvar-aprel oylarida, Toshkent viloyatida jami 4789,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 112,3 %ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





2024- yil 1-may holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1367

•Bino va inshootlar qurish

384

•Fuqarolik obyektlarini qurish

1001

•Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2024- yilning shu davriga nisbatan 89,2foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 49,7 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 104,3 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 36,3 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 90,3 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.05.2024- y.	01.05.2023- y.	
Toshkent viloyati	2752	3086	89,2
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	117	142	82,4
Olmalik	128	145	88,3
Angren	162	184	88
Bekobod	119	131	90,8
Ohangaron	93	111	83,8
Chirchiq	294	284	103,5
Yangiyo'l	71	82	86,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	53	63	84,1
Ohangaron	56	74	75,7
Bekobod	76	93	81,7
Bo'stonliq	121	110	110
Bo'ka	93	118	78,8
Quyichirchiq	53	79	67,1
Zangiota	214	222	96,4
Yuqori Chirchiq	175	185	94,6
Qibray	296	315	94
Parkent	89	102	87,3
Piskent	58	59	98,3
O'rta Chirchiq	144	160	90
Chinoz	83	114	72,8
Yangiyo'l	118	149	79,2
Toshkent	139	164	84,8



2024- yil 1-may holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


Qibray (10,8)



Chirchiq sh. (10,7)



Zangiota (7,81)





Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	4789,1	901,8	2652,6	1234,7
shaharlar:				
Nurafshon	216,8	6,6	185,5	24,7
Olmaliq	754,4	599,3	121,8	33,3
Angren	145,4	9,4	96,5	39,5
Bekobod	162,7	3,6	129,7	29,4
Ohangaron	44,6	9,3	11,8	23,5
Chirchiq	202,6	8,1	166,5	28
Yangiyo'l	165,5	0,2	152,5	12,8
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	186,9	0	146,9	40
Ohangaron	151,6	6	92,6	53
Bekobod	38,2	3,7	13,3	21,2
Bo'stonliq	191,2	70,6	58,9	61,7
Bo'ka	118,2	6,8	71,3	40,1
Quy Chirchiq	186,4	0	134,1	52,3
Zangiota	439,3	0	341,5	97,8
Yuqori Chirchiq	303	8,3	251,9	42,8
Qibray	436,3	135,6	147,2	153,5
Parkent	108,1	0,5	67,1	40,5
Piskent	141,7	17,8	90,8	33,1
O'rta Chirchiq	243,5	0	185,3	58,2
Chinoz	79,4	1	32,2	46,2
Yangiyo'l	143	11,1	42	89,9
Toshkent	330,3	3,9	113,2	213,2



2024- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 901,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 125,7 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko'rsatkich darajasidan 2,1 % punktga kamayib, 18,8%ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,4 %ni to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 102,1 %ni tashkil etgan holda 2652,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

55,4

2024- yil
Yanvar-aprel

60,7

2023- yil
Yanvar-aprel



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (341,5so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 12,9%), Yuqori Chirchiq (251,9 mlrd. so'm yoki 9,5 %) Qibray tumani (147,2 mlrd.so'm yoki 5,5 %) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 25,8 %ni tashkil etdi yoki 1234,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 129,7 %ni tashkil etdi.

2023 yil
yanvar-aprel

879,0
mlrd. so'm


2024- yil
yanvar-aprel

1234,7
mlrd. so'm

22,6%

25,8%

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 112,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4676,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 2,3 % va 9,7 %ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70